

**O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN LAW
REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 19-martda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 12,3.
Adadi: 100. Buyurtma: № 43.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY’ATI**BOSH MUHARRIR**

S. Gulyamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

S. Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

J. Peeroo – Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

B. Musayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar nomzodi

D. Habibullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

S. Bozorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O. Xazratqulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

D. Suyunova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

D. Maxkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori

D. Babadjanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar doktori

A. Matmurotov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

E. Rahmatov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M. Turdialiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию

19.03.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12,3. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 43.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного

юридического университета.

100047, г. Ташкент,

ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор

О. Окюлов – профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Энер – доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права

М. Бунгенберг – директор Европейского института Саарского университета, доктор права

С. Татар – профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права

Ж. Пироо – профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права

Б. Мусаев – декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ш. Сайдуллаев – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Хабибуллаев – заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

С. Бозоров – профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук

И. Беков – заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

В. Эргашев – заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Ш. Джолдасова – ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

О. Хазраткулов – заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Суюнова – профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Д. Махкамов – декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Д. Бабаджанова – и.о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Матмуратов – доцент сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Э. Рахматов – декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент

М. Турдиалиев – заместитель заведующего сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Uzbekistan Law Review” scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the
Printing

house on 19.03.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 12,3.

Units: 100. Order: № 43.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief

Sh. Khujaev – Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Okyulov – Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

S. Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law

J. Peeroo – Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law

B. Musaev – Dean of the Faculty of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Sh. Saydullaev – Professor of the Department of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

S. Bozorov – Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

D. Mahkamov – Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

D. Babadjanova – Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Matmurotov – Associate Professor of the the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

E. Rahmatov – Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

M. Turdialiyev – Deputy Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **XAYDAROVA MARJONA OLIM QIZI**
Davlat huquqiy siyosatining asosiy prinsiplari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

17 **ABDUQODIROV ABDURAUF BAXODIR O'G'LI**
Yevropa Ittifoqi doirasida yuridik shaxsning davlatga mansubligini aniqlash muammolari
26 **ZIYAMOV BOBURXON BAXTIYOR O'G'LI**
Diplomatiyada sun'iy intellekt: huquqiy va etik asoslar hamda xalqaro tartibga solish istiqbollari
34 **KOKANBAYEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**
Subyektiv raqamli huquqlar tizimida insonning qaror qabul qilish huquqi

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

45 **SOLIYEVA KAMOLA RUSTAMJON QIZI**
Meros huquqiy munosabatlarida merosxo'rlarni aniqlash bilan bog'liq muammolar
56 **ODILOVA SITORA BOBIR QIZI**
O'zbekiston qonunchiligida protsessual muddatlar bilan bog'liq huquqiy muammolarni bartaraf etish

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI

68 **PO'LATOV MIRZOHI QO'ZIMURODOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lashning huquqiy asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

81 **ALLOBERDIYEVA DURDONA O'KTAMJON QIZI**
Kurort yerlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy jihatleri

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

89 **NURITDINOV JAMSHIDXON MAMUTXONOVICH**
Sud-ekspertlik sohasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM QIZI**
O'zbekiston qonunchiligini ekstraditsiya bo'yicha xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

108 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
Raqamli transformatsiya sharoitida raqamli tafovut ayollar huquqlarini amalga oshirishga tahdid sifatida: xalqaro-huquqiy va milliy tahlil

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **ХАЙДАРОВА МАРЖОНА ОЛИМ КИЗИ**
Основные принципы государственной правовой политики

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 17 **АБДУКОДИРОВ АБДУРАУФ БАХОДИР УГЛИ**
Проблемы определения государственной принадлежности юридического лица в рамках Европейского союза
- 26 **ЗИЯМОВ БОБУРХОН БАХТИЁР УГЛИ**
Искусственный интеллект в дипломатии: правовые и этические рамки и перспективы международного регулирования
- 34 **КОКАНБАЕВА МАДИНА ШУКУРБЕКОВНА**
Право на человеческое решение в системе субъективных цифровых прав

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 45 **СОЛИЕВА КАМОЛА РУСТАМЖОН КИЗИ**
Проблемы определения наследников в наследственных правоотношениях
- 56 **ОДИЛОВА СИТОРА БОБИР КИЗИ**
Устранение правовых проблем, связанных с процессуальными сроками в законодательстве Узбекистана

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 68 **ПУЛАТОВ МИРЗОХИД КУЗИМУРОВИЧ**
Правовые основы оплаты труда педагогических работников высших образовательных организаций

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 81 **АЛЛОБЕРДИЕВА ДУРДОНА УКТАМЖОН КИЗИ**
Правовые аспекты использования и охраны земель курортных территорий

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ
ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 89 **НУРИТДИНОВ ЖАМШИДХОН МАМУТХОНОВИЧ**
Цифровизация и использование современных технологий в судебно-экспертной сфере
- 97 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Возможности гармонизации законодательства Узбекистана с международными стандартами экстрадиции

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 108 **АБДИЕВА КАМОЛА КОМИЛЖОНОВНА**
Цифровой разрыв как вызов реализации прав женщин в условиях цифровой трансформации: международно-правовой и национальный анализ

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **KHAYDAROVA MARJONA OLIM KIZI**
Basic principles of state legal policy

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **ABDUKODIROV ABDURAUUF BAKHODIR UGLI**
Problems of determining the state belonging of a legal entity within the framework of the European Union
- 26 **ZIYAMOV BOBURKHON BAKHTIYOR UGLI**
Artificial intelligence in diplomacy: legal and ethical framework and prospects of international regulation
- 34 **KOKANBAEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**
The right to a human to make decisions in the system of subjective digital rights

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 45 **SOLIEVA KAMOLA RUSTAMJON KIZI**
Problems related to the determination of inheritors in inheritance legal relations
- 56 **ODILOVA SITORA BOBIR KIZI**
Elimination of legal problems related to procedural terms in the legislation of Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 68 **PULATOV MIRZOHID KUZIMURODOVICH**
Legal basis for remuneration of pedagogical staff of higher education institutions

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 81 **ALLOBERDIEVA DURDONA UKTAMJON KIZI**
Legal aspects of use and protection of resort lands

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 89 **NURITDINOV JAMSHIDKHON MAMUTKHONOVICH**
Digitalization and use of modern technologies in the forensic sector
- 97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM KIZI**
Possibilities for harmonizing Uzbekistan's legislation with international extradition standards

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 108 **ABDIEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
The digital space as a challenges to the realization of women's rights in the context of digital transformation: international legal and national analysis

Kelib tushgan / Получено / Received: 03.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.03.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 19.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.1./LLJM9181>

UDC: 349.4/.6(045)(575.1)

KURORT YERLARIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY JIHLTLARI

Alloberdiyeva Durdona O'ktamjon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9077-3048>

e-mail: durdonallaberdieva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kurort hududlari yerlarini huquqiy muhofaza qilishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Muallif kurort yerlarining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimidagi o'рни hamda tabiiy davolovchi resurslarni saqlashdagi ahamiyatini yoritgan. Amaldagi konstitutsiyaviy va ekologik qonunchilik asosida kurort yerlarining huquqiy rejimi, ulardan foydalanishni cheklash zarurati va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, hududlarni zonalarga ajratish, ruxsat etilgan va taqiqlangan faoliyat turlari hamda yerlar degradatsiyasi, ifloslanishining oldini olish mexanizmlari tahlil etilgan. Qonunchilikdagi bo'shliqlar ko'rsatilib, nazoratni kuchaytirish va maxsus ekologik hamda shaharsozlik talablarini joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kurort yerlari, huquqiy muhofaza, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yer huquqi, ekologik talablar, tabiiy davolovchi resurslar, yerlarning huquqiy rejimi

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ ЗЕМЕЛЬ КУРОРТНЫХ ТЕРРИТОРИЙ

Аллобердиева Дурдона Уктамжон кизи,
базовый докторант

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты правовой охраны земель курортных территорий. Автор раскрывает место курортных земель в системе особо охраняемых природных территорий, а также их значение в сохранении природных лечебных ресурсов. На основе действующего конституционного и экологического законодательства рассмотрены правовой режим земель курортных территорий, необходимость ограничения их использования и вопросы обеспечения экологической устойчивости. Кроме того, проанализированы вопросы зонирования территорий, виды разрешённой и запрещённой деятельности, а также механизмы предотвращения деградации и загрязнения земель. Указаны пробелы в законодательстве и предложены меры по усилению контроля, а также по внедрению специальных экологических и градостроительных требований.

Ключевые слова: курортные земли, правовая охрана, особо охраняемые природные территории, земельное право, экологические требования, природные лечебные ресурсы, правовой режим земель

LEGAL ASPECTS OF USE AND PROTECTION OF RESORT LANDS

Alloberdieva Durdona Uktamjon kizi,

Basic Doctoral Student of Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the legal protection of lands of resort areas. The author highlights the place of resort lands in the system of specially protected natural areas and their importance in the conservation of natural healing resources. Based on the current constitutional and environmental legislation, the legal regime of resort lands, the need to restrict their use, and issues of ensuring environmental sustainability were considered. Also, the zoning of territories, permitted and prohibited types of activities, as well as mechanisms for preventing land degradation and pollution, were analyzed. The gaps in legislation were indicated, and proposals were made to strengthen control and introduce special environmental and urban planning requirements.*

Keywords: *resort lands, legal protection, specially protected natural areas, land law, environmental requirements, natural healing resources, legal regime of lands*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga ko'ra, yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir (Republic of Uzbekistan, 2023). Shundan keyingina Konstitutsiya yer uchastkasini mulk huquqi vujudga kelishi mumkin bo'lgan obyekt sifatida tavsiflaydi. Konstitutsiyamiz qoidalarini rivojlantirgan holda Yer kodeksining 1-moddasida yer xalq hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida e'tirof etiladi. Yerdan ko'chmas mulk sifatida foydalanishdan ko'ra uni atrof-muhitning muhim komponenti sifatida muhofaza qilish ustuvorligi, shuningdek, alohida muhofaza etiladigan hududlar yerlarini saqlash ustuvorligi yer huquqining asosiy tamoyillari sifatida Yer kodeksida mustahkamlangan (Republic of Uzbekistan, 1998).

Mulkdorlar, yer egalari, yer foydalanuvchilari va ijarachilar yer uchastkalaridan ularning maqsadli vazifasi, yer toifasiga mansubligi hamda ruxsat etilgan foydalanish turiga muvofiq ravishda foydalanishlari shart. Bunday foydalanish atrof-muhitga, jumladan, yerga tabiiy obyekt sifatida zarar yetkazmasligi lozim (Gwoździewicz et al., 2016).

Kurort yerlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish tartibini belgilash tabiiy davolovchi xossalarga ega resurslarni hamda kurortlarni muhofaza etiladigan hudud va tabiiy majmua sifatida himoya qilishning ajralmas qismidir. Bu yerlar uchun maxsus foydalanish tartibini o'rnatishdan maqsad nafaqat ularning o'zini tabiiy obyekt sifatida salbiy omillardan himoya qilish, balki aynan shu yerlar ajratilishiga sabab bo'lgan tabiiy obyektlarni asrash hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Bizningcha, mamlakatimiz uchun tabiatdan oqilona foydalanish muammosi iqtisodiy hamda ekologik nuqtayi nazardan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunchilikni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va yuridik javobgarlik choralari takomillashtirish strategik vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism

S.Y. Korolyov (2021) yerlarning huquqiy muhofazasini yer resurslaridan foydalanish asoslari va shartlarini huquq normalarida mustahkamlash, ularni buzganlik uchun javobgarlik belgilash, shuningdek, yerlarni boshqa tabiat komponentlari bilan o'zaro aloqada hisobga

olgan holda oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralar tizimi sifatida ta'riflaydi.

Uolles va Lou (Wallace & Lowe, 2011) esa yerlarni huquqiy muhofaza qilishni Yer sharining muayyan hududi doirasida yuzaning qulay sifat holatini saqlash, tiklash va yaxshilashga qaratilgan yuridik choralar tizimi sifatida belgilaganlar. Unga ko'ra, bunday choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mazkur sohadagi huquq ijodkorligi jarayoni;
- ekologik talablarni o'z ichiga olgan huquqiy normalar;
- fuqarolar va tashkilotlarning ushbu talablarni ixtiyoriy bajarish faoliyati;
- majburiy ijro etishni ta'minlovchi davlat organlarining huquqni qo'llash faoliyati.

Yer boyliklaridan samarali, ilm-fan tavsiyalari, tabiatning umumiy qonuniyatlari asosida foydalanish va uning muhofazasini to'g'ri ta'minlash, shak-shubhasiz, hozirgi davrning birinchi darajali vazifalaridan biridir. Bunda yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki tegishli huquq normalari yerdan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi vazifani o'taydi, undan oqilona foydalanish va turli xil g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilish choralarini belgilaydi (Usmonov et al., 2011).

D.M. Umarovning (2010) fikricha, "Muhofaza etiladigan hududlar va muhofaza etiladigan hududlar yerlari tushunchalarini bir xilda tushunish uncha to'g'ri emas. Chunki muhofaza etiladigan hududlar tushunchasiga shu maqsadlarga ajratib berilgan yer uchastkalaridan tashqari suv kengliklari (akvatoriyalar), baliq xo'jaligi tegralari, sharsharalar va boshqalar ham kiradi.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunda (Republic of Uzbekistan, 2004) kurort tabiiy hududlarga shunday ta'rif berilgan: "Davolash va sog'lomlashtirish xossalriga, mineral manbalarga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga, qulay iqlim va boshqa sharoitlarga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kurort tabiiy hududlar hisoblanadi".

Fikrimizcha, bu ta'rif "sog'lomlashtirish maqsadiga mo'ljallangan yerlar" tushunchasiga mos keladi, chunki kurort – oddiy yer emas, balki inson tomonidan yaratilgan, davolash uchun mo'ljallangan bino va inshootlar joylashgan tabiiy muhit maydoni hisoblanadi. Kurort yerlarini huquqiy muhofaza qilish mazmuniga quyidagi normalar majmualari kiradi:

- Yer kodeksining II bobidagi barcha yer toifalari uchun umumiy muhofaza talablarini belgilovchi normalar;
- kurort yerlarida xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan cheklov va talablarni hamda foydalanuvchilarning majburiyatlarini belgilovchi normalar;
- ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi normalar.

Kurort hududlari yerlari shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, ushbu yerlarning ekologik holati tabiiy obyektlar, davolovchi omillar va umuman kurortdagi ekologik vaziyat holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kurort hududlari yerlari yer ostida joylashgan va kurort mavjudligida muhim rol o'ynaydigan tabiiy resurslarga ehtimoliy zararli ta'sirlardan tabiiy himoya vazifasini bajaradi. Bu resurslar nafaqat mahalliy aholi, balki ko'pincha minglab boshqa odamlar salomatligi va farovonligi uchun ham alohida ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan kurort hududlari chegarasida qishloq xo'jaligi va chorvachilik faoliyatini yuritishga doir maxsus talablar belgilanadi. Bu talablar yerlarni o'g'itlar va kimyoviy moddalar bilan, chorvachilik majmualari chiqindilaridan ifloslanishdan himoya qilish hamda chorvachilik bilan bog'liq kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar tarqalishi xavfini kamaytirishga qaratilgan.

Kurort yerlarini huquqiy muhofaza qilish kurortlarni va ularning tabiiy davolovchi resurslarini muhofaza qilish tizimi doirasida amalga oshiriladi (Romanova, 2019). Bunga:

- yerlarni muhofaza qilish bo'yicha umumiy talablar;
- xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan maxsus cheklovlar;
- javobgarlik choralarini belgilovchi normalar kiradi.

Kurort hududlarida barcha xo'jalik faoliyati cheklangan bo'lishi lozim, chunki bu yerlar kurortning ekologik barqarorligi va davolovchi resurslarini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikda bunday yerlarni muhofaza qilish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lib, nazorat va tiklash choralarini kuchaytirish zarur.

Kurort hududlarida sanatoriylar, profilaktoriylar, dam olish uylari korpuslaridan tortib, tozalash inshootlari, elektr podstantsiyalari, avtoturargohlar, avtomobil va temiryo'l vokzallari hamda kurortning dam olish maskani sifatida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan, shuningdek, uning chegaralarida joylashgan aholi punktlari hayotini qo'llab-quvvatlaydigan boshqa infratuzilma obyektlarigacha turli funksional yo'nalishdagi binolarni joylashtirish mumkin va zarur. Bunday obyektlar kurort atrof-muhitini – yerlar, suvlar, atmosfera havosi va yerosti boyliklarini ifloslantirish manbalari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan sabablar tufayli nafaqat kurort yerlaridan, balki kurort chegaralaridagi barcha yer uchastkalaridan foydalanish cheklanadi va xo'jalik faoliyatiga nisbatan yuqori ekologik talablar qo'yiladi. Kurort yerlaridan foydalanish bo'yicha umumiy talablar Yer kodeksida (Republic of Uzbekistan, 1998), "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (Republic of Uzbekistan, 1992) hamda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi (Republic of Uzbekistan, 2004) qonunlarda belgilangan.

Kurort tabiiy hududlari doirasida quyidagilar taqiqlanadi:

- foydali qazilmalarni qazib olish, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq qazib olish bundan mustasno;
- kimyo, sellyuloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;
- daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);
- zaharli kimyoviy moddalar qo'llanishi;
- harom o'lgan chorva mollari ko'miladigan joylarni tashkil etish;
- zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlarini qurish;
- chiqindilarni saqlash va ko'mish;
- joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Mazkur taqiqlar va cheklovlar umumdavlat va mahalliy ahamiyatga ega barcha kurortlarga teng darajada tatbiq etiladi.

Kurort hududlari yerlarini muhofaza qilish choralarini belgilovchi huquqiy normalar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda ham mavjud. 2002-yil 5-apreldagi 362-II-sonli "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasida sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlarda va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zarar yetkazish tahdidi kelib chiqishi mumkin bo'lgan boshqa joylarda saqlash va zararsizlantirish taqiqlanishi belgilangan (Republic of Uzbekistan, 2002).

Qonunchilikka ko'ra, kurort tabiiy hududlari uchta zonaga bo'linadi.

Birinchi zonaga davolash xossalariga ega manbalar, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hududlar kiradi. Bunday zonada har qanday faoliyat taqiqlanadi, davolash xossalariga ega manbalar va balchiq bilan davolash shifoxonalarini obodonlashtirish uchun zarur inshootlar

qurish bundan mustasno.

Ikkinchi zona nisbatan yumshoqroq bo'lib, unga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylarining hududlari kiradi. Bu zonada davolash va dam olishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan faoliyatni istisno etganda har qanday faoliyat, shuningdek, bu hududda vaqtincha istiqomat qiladigan tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari boshqa aholining yashashi taqiqlanadi.

Uchinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hududlar kiradi. Bu zonada davolash manbalariga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga zarar yetkazmaydigan va dam olish hamda davolanish sharoitlarini yomonlashtirmaydigan cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi (Republic of Uzbekistan, 2004).

Yerlarni kurort hududi chegaralariga kiritish mezonini – ularda yoki ularning ostida sodir bo'layotgan jarayonlarning kurort hududi tabiiy majmua sifatidagi umumiy holatiga va uning tabiiy obyektlari holatiga ta'siridir. Kurort chegaralaridagi har qanday xo'jalik faoliyati kelajakda bartaraf etish yoki zararsizlantirish imkonsiz bo'lgan kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Nazoratsiz xo'jalik faoliyati natijasida davolash xossalariga ega resurslar ifloslanishi, kamayishi yoki butunlay yo'q bo'lishi mumkin (Navasardova et al., 2024).

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlar yerlaridan hamda ularning bir turi bo'lgan kurort yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yer uchastkalaridan ularning maqsadli vazifasi va ruxsat etilgan foydalanish turiga muvofiq foydalanish talabi;
- yer uchastkalaridan oqilona foydalanishni ta'minlash talabi;
- kurort yerlarida amalga oshiriladigan xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan talablar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlar tarkibidagi yer uchastkalari kurort faoliyatida, uning tabiiy davolovchi resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda birlamchi ahamiyatga ega. Odatda aynan shu hududlarda tabiiy davolovchi resurslar, jumladan, ularning yer yuzasiga chiqish joylari joylashgan bo'ladi, shuningdek, bu yerlar ko'pincha sanatoriy-kurort tashkilotlari foydalanishida bo'ladi (Alloberdiyeva, 2025).

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yerlari joylashgan yerlar bo'yicha shunday talab belgilangan: bu yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi.

“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi Qonunning 47-moddasiga ko'ra, muhofaza etiladigan hududlarda umumiy huquqiy rejimni tartibga soluvchi normalar bunday yerlar xo'jalik foydalanishidan va muomaladan to'liq yoki qisman chiqarilishi, ular uchun maxsus huquqiy rejim o'rnatilishini belgilaydi (Republic of Uzbekistan, 2004). Biroq Yer kodeksida kurort yerlaridan foydalanish tartibiga oid maxsus talablar nazarda tutilmagan. Ularni muhofaza qilishning asosiy vositasi kurort hududlarining ikkinchi va uchinchi zonalarida yerlarni foydalanish bo'yicha belgilangan talablar hisoblanadi (Republic of Uzbekistan, 1998).

Kurort yerlarida qurilish olib borish bo'yicha maxsus talab Shaharsozlik kodeksi 75-moddasida kurort uchun mo'ljallangan hududlar va kurort aholi punktlari alohida tartibga solinadigan shaharsozlik faoliyati obyektlari sifatida belgilanganida ko'rinadi (Republic of Uzbekistan, 2021). Bundan tashqari, ushbu kodeksda “kurort shaharlar” atamasi ham qo'llangan bo'lsa-da, qonunchilikda ushbu tushunchalarga ta'rif keltirilmagan. Shu sababli mazkur tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq va quyidagi ta'riflarni qonunchilikka kiritish taklif etiladi:

Kurort aholi punkti – tabiiy davolovchi resurslar (mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar,

qulay iqlim sharoiti va boshqa tabiiy omillar) mavjud bo'lgan, aholining sog'lomlashtirish, davolanish va rekreatsiya ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan, hududida sanatoriylar, dam olish maskanlari va boshqa sog'lomlashtirish infratuzilmasi joylashgan aholi yashash manzili.

Kurort shahar – asosiy iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati sog'lomlashtirish, rekreatsiya va turizm xizmatlarini ko'rsatishga yo'naltirilgan, rivojlangan kurort infratuzilmasiga ega hamda tabiiy davolovchi resurslardan foydalanishga asoslangan shahar maqomidagi aholi punktidir.

Mazkur ta'riflarni qonunchilikka kiritish kurort hududlarida shaharsozlik faoliyatini tartibga solishda aniqlikni ta'minlash, shuningdek, kurort hududlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan kurort hududlaridan foydalanish tartibiga ularni va tabiiy davolovchi resurslarni muhofaza qilish maqsadida qo'shimcha talablar joriy etish zarur. Bunday talablarga, masalan, Yer kodeksining 73-moddasiga ayrim qoidalarni tatbiq etish, yerlarning foydalanish maqsadlarini aniq belgilash, yer yuzasining asfalt bilan qoplanmagan qismini saqlash (yer yoki tuproqning zichlashishining oldini olish maqsadida), ko'kalamzorlashtirish talabi, qurilish maydonlarining maksimal hajmi, ma'lum yer maydoniga ruxsat etilgan antropogen yuklama me'yorlari va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, ruxsat etilgan va taqiqlangan faoliyat turlarining aniq ro'yxatini belgilash, ayniqsa, kurort davolash va dam olishni tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan faoliyat uchun ruxsat etilgan foydalanish turini o'zgartirish imkoniyatini keskin cheklash zarur.

Kurort yerlaridan foydalanish tartibini buzish bilan bog'liq sud amaliyoti deyarli mavjud emasligi sababli sanatoriy-kurort obyektlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari bo'yicha nizolar amaliyotini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ijaraga berilgan yer uchastkasidan maqsadli foydalanish shartini bajarmaslik ko'pincha ijara shartnomasini bekor qilish asosi sifatida ko'rsatiladi (Kulkajonplun et al., 2016). Chunki muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va kurort yerlariga mansub yerlar uchun ruxsat etilgan foydalanish turlarining aniq ro'yxati qonunchilikda mavjud emas, shuningdek, yerdan foydalanish va qurilish qoidalari qabul qilinmagan, natijada sanatoriy-kurort tashkilotlariga berilgan yer uchastkalaridan maqsadli foydalanish talabi bajarilgan-bajarilmaganligi yuzasidan nizolar kelib chiqishi mumkin.

Kurort yerlaridan maqsadli foydalanish talabi davlat yer nazorati orqali ta'minlanadi. Biroq bu tadbirlar boshqa yer toifalaridan foydalanish ustidan nazorat bilan bir qatorda amalga oshiriladi va kurort yerlarini alohida muhofaza etiladigan hududlar yerlari sifatida muhofaza qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olmaydi. Tekshiruvlarning tabiatni muhofaza qilishga oid jihati faqat yer uchastkasining amaldagi foydalanishi uning ruxsat etilgan foydalanish turiga mos kelishini aniqlash bilan cheklanadi.

Kurort yerlaridan oqilona foydalanish asosan sanatoriy-kurort hududlarini zonalarga ajratish orqali ta'minlanadi (Gwoździewicz et al., 2016), bu ularning hududlaridan eng qulay va oqilona foydalanishni tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu talabga rioya etilishi kurortni rejalashtirish bosqichida va keyinchalik sanatoriy-kurort obyektlarini qurish jarayonida ta'minlanishi kerak.

Kurort yerlarini kurortning tarkibiy qismi sifatida degradatsiya, chiqindilar bilan ifloslanish, yerlarning buzilishi va xo'jalik faoliyatining boshqa salbiy ta'sirlaridan muhofaza qilish, shuningdek, bunday salbiy omillar oqibatida yerlarni yaxshilash va tiklash bo'yicha maxsus choralar qonunchilikda nazarda tutilmagan. Shu sababli hatto allaqachon zararlangan

yerlarni tiklash yoki yemirilishining oldini olish bo'yicha ham chora-tadbirlar ko'rilmaydi. Bu esa salbiy oqibatlarga olib keladi, chunki muhofaza etiladigan hududlar yerlarining holati ustidan nazorat, atrof-muhitdagi muhim roli sababli yuqori darajada olib borilishi kerak.

Xulosa

Demak, aytishimiz mumkinki, kurort hududlari yerlarini huquqiy muhofaza qilish kurortlarni muhofaza etiladigan hududlar sifatida va ularning tabiiy davolovchi resurslarini muhofaza qilish doirasida amalga oshiriladi. Kurort yerlarini huquqiy muhofaza qilish mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin: Yer kodeksining II bobidagi barcha toifadagi yerlarni muhofaza qilish bo'yicha umumiy talablarni belgilovchi normalar; kurort yerlarida amalga oshiriladigan xo'jalik faoliyatiga cheklovlar va maxsus talablarni belgilovchi hamda ushbu yerlarning mulkdorlari va boshqa foydalanuvchilariga majburiyatlar yuklovchi normalar; kurort yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalar.

Tabiiy davolovchi resurslarni muhofaza qilish maqsadida kurort hududlari yerlarida har qanday xo'jalik faoliyati cheklanishi lozim. Kurort yerlaridan foydalanish tartibi va ularni muhofaza qilish kurort faoliyatidagi alohida roli hamda tabiiy davolovchi resurslarni muhofaza qilishdagi ahamiyati bilan belgilanadi, bu esa ulardan foydalanish tartibiga maxsus talablar o'rnatilishida namoyon bo'ladi. Kurort yerlarining bu alohida xususiyati o'ziga xos jihati hisoblanadi. Bu, avvalo, kurort yerlaridan muhofaza etiladigan hudud va obyektlar toifasiga xos foydalanish turi asosida foydalanish zarurati bilan bog'liq. Biroq amalda kurort yerlarini maxsus muhofaza qilish deyarli amalga oshirilmaydi. Ularga nisbatan faqat yerlardan maqsadli foydalanish talabi va ularni boshqa yer toifalariga o'tkazishda davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish zarurati amal qiladi.

REFERENCES

1. Aksenyonok, G. A., Ikonitskaya, I. A., & Krasnov, N. I. (1983). *Obshchaya teoriya sovetskogo zemelnogo prava [General theory of Soviet land law]*. Nauka. https://books.google.com/books/about/Общая_теория_советского_земельного_права.html?id=tL4sAAAAMAAJ
2. Alloberdiyeva, D. O. (2025). Legal and practical approaches to the sustainable use of resort natural areas in a green economy. *European Science Methodical Journal*, 3(6), 50–52. <https://europeanscience.org/index.php/3/article/download/1465/1395/2827>
3. Gwoździewicz, S., Wołowicz, T., & Ahmed-Skrzypek, S. (2016). Klassifikatsiya i opredelenie kurorta v yuridicheskom i organizatsionnom aspekte [Classification and definition of a resort in legal and organizational aspects]. *International Journal of New Economics and Social Sciences*, 4(2), 236–253. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=614240>
4. Investment Council. (2018). *Legal and institutional framework on tourism*. https://www.investment.com.al/wp-content/uploads/2018/12/EN_Legal-and-Institutional-Framework-on-Tourism.pdf
5. Korolyov, S.Y. (2021). Pravovaya okhrana zemel: nekotorye problemy ponyatiynogo apparata v sootnoshenii s politikoy gosudarstva, napravlennoy na ekologizatsiyu zakonodatelstva [Legal protection of land: some conceptual problems in relation to state policy aimed at ecological legislation]. *Pravovaya politika i pravovaya zhizn [Legal Policy and Legal Life]*, (3). <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-okhrana-zemel-nekotorye-problemy-ponyatiynogo-apparata-v-sootnoshenii-s-politikoy-gosudarstva-napravlennoy-na>

6. Kulkajonplun, K., Angkasith, V., & Rithmanee, D. (2016). The development of a sustainable resort and indicators. *Procedia CIRP*, 40, 191–196. <https://doi.org/10.1016/j.procir.2016.01.099>
7. Navasardova, E., Burkin, D., Nutrikhin, R., & Svidlova, K. (2024). Legal regime of resorts of the Caucasian Mineral Waters in Russia: Problems and risks of legislative regulation. *Brazilian Journal of Law & International Relations*, 3(45), 24–43. <https://openurl.ebsco.com/contentitem/gcd:180644220>
8. Republic of Uzbekistan. (1992). *Law on Nature Protection*. Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-107115>
9. Republic of Uzbekistan. (1998). *Land Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-152653>
10. Republic of Uzbekistan. (2002). *Law of the Republic of Uzbekistan “On Waste”*. Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-42423>
11. Republic of Uzbekistan. (2004, December 3). *Law of the Republic of Uzbekistan “On Protected Natural Areas”*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-415135>
12. Republic of Uzbekistan. (2021, February 22). *Urban Development Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5307951>
13. Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6445145>
14. Romanova, O. A. (2019). Problemy pravovogo regulirovaniya zemel’no-imushchestvennykh otnosheniy na territoriyakh rossiyskikh kurortov [Problems of legal regulation of land and property relations in Russian resorts]. *Lex Russica*, 150(5), 148–160. <https://doi.org/10.17803/1729-5920.2019.150.5.148-160>
15. Umarov, D. M. (2010). *Zapovedniki Respubliki Uzbekistan: Pravovoe regulirovanie [Nature reserves of the Republic of Uzbekistan: Legal regulation]*. Digital Library of Tashkent State University of Law. <https://library-tsul.uz/ru/zapovedniki-respubliki-uzbekistan-p/>
16. Usmonov, M. B., Mirzaabdullayeva, M. R., & Uzakova, G. Sh. (2011). *O‘zbekistonda yer huquqining nazariy muammolari [Theoretical problems of land law in Uzbekistan]*. TSIL.
17. Wallace, K. L., & Lowe, M. S. (2011). HeinOnline and law review citation patterns. *Law Library Journal*, 103(1), 55–70. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1883596

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.